



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI**

**III kurs “B” guruh talabasi**

*Annaqulova Shaxloning*

*O`zbek adabiyoti o`qitish metodikasi fanidan*

*«“Layli va Majnun” dostonini o`rganishda lug‘at ustida ishlash»*

*mavzusida yozgan*

**KURS ISHI**

**Ilmiy rahbar: M. Xudoyorova.**

**Navoiy - 2019**

## **Mundarija:**

<b>1. Kirish.....</b>	<b>3-6-betlar</b>
<b>2. I bob. Ta’lim jarayonida Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini o‘rgatish usullari .....</b>	<b>7-17-betlar</b>
<b>3. II bob. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini o‘rganishda lug‘at bilan ishslash yo‘llari.....</b>	<b>18-30-betlar</b>
<b>4. Xulosa.....</b>	<b>31-32-betlar</b>
<b>5. Foydalilanigan adabiyotlar.....</b>	<b>33-34-betlar</b>
<b>6. Ilovalar</b>	

## Kirish

Ma'lumki, bugungi kunning dolzARB masalalaridan biri yosh avlodni komil inson, yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, chuqur bilimli, ijodkor va har tomonlama faol qilib tarbiyalashdir. "O'zbekistonda mustaqil va kuchli davlat qurishdan asosiy maqsad inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan va hurmat qilinadigan adolatli jamiyat barpo etishdir. Ayni vaqtida musulmon olami va jahon hamjamiyatidagi munosib o'rnimizni yanada mustahkamlashdir. Bu, avvalambor, ta'lim va ma'rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo'naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash bilan bog'lik ekanini biz yaxshi anglaymiz.<sup>1</sup> Xususan, yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng qulay va serunumini tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'analarimiz ruhida tarbiyalashda ona tili fanining tutgan o'rni hamda imkoniyatlari benihoya katta.

Ta'lim-tarbiya jarayonining doimiy ravishda optimallashib borishi dars berish jarayonida qo'llanilayotgan yangi va takomillashib borayotgan pedagogik texnologiyalarni turli yo'naliш va maqsadlarda qo'llanilayotganligiga bog'liq. Bugun ta'lim tizimida hayotga tadbiq etilayotgan islohatlarning barchasi tub mazmun-mohiyati bilan yoshlarimizning yurt ravnaqi uchun fidoyi, izlanuvchan bo'lib yetishmog'iga qaratilgan. Chunki yosh avlodni har jihatdan yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalay olish va ularda eng oliy insoniy fazilatlarni tarbiyalay olish buyuk kelajagimizni yaratishdir.

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev.Sh.Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.T.: "O'zbekiston" 2017,31-b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligidagi 2019-yil 19-mart kuni o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlikni targ’ib qilish masalalari muhokama qilingan edi. Yig’ilishda davlat rahbari aholi, ayniqsa, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish masalasiga to’xtalar ekan, “Har bir rahbar o’zining shaxsiy kutubxonasidan kitoblar sovg’a qilsa, bu yaxshi tashabbus bo’lib kitobxonlikni rivojlantirish bilan farzandlarimiz tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi”, - deb ta’kidlagan edi.<sup>2</sup> Mamlakatimizni har tomonlama ham iqtisodiy-ijtimoiy ham madaniy-ma’rifiy jihatdan yuksalishida yoshlarning o’rni benihoya kattadir. Shuning uchun ham prezidentimiz bugungi kunda ta’lim, fan va adabiyot sohasida ko’plab o’zgarishlar va yangilanishlarni olib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarida keng ko‘lamdagi islohotlar olib borilmoqda. Shu qatorda ilm-fanni, ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha Prezidentimizning qator farmonlari amalda o‘z tasdig‘ini topib bormoqda. Ta’lim tizimi, xususan, kitobxonlik sohalarida ham islohotlar olib borilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ibot qilish to‘g‘risida"gi farmoyishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu farmoyishda jamiyat hayotidagi ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatining oshirilishiga alohida e’tibor qaratilgandir. Qarorlar samarasini ta’minlash maqsadida mamlakatimiz bo‘ylab “Mening birinchi kitobim”, “Eng yaxshi kitobxon”,

---

<sup>2</sup> [www.google.uz](http://www.google.uz)

“Kitobxon oila” kabi tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buni mamlakatimizdagi ilm-fanga, adabiyotga qaratilayotgan yuksak e’tibor desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ma’lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo’lga qo’yish bo’yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Bulardan to’rtinchı tashabbus: yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o’rtasida kitobxonlikni keng targ’ib qilish bo’yicha tizimli ishlar tashkil etishga yo’naltirilgan bo’lib, kelajagimiz poydevori bo’lgan yoshlarning ilmiy va ma’naviy salohiyatini oshirishni ta’minlaydi..<sup>3</sup>

Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz.<sup>4</sup> Prezidentimiz bildirgan ushbu fikrlar to’rtinchı tashabbusni, ya’ni yoshlar o’rtasida kitobxonlikni keng targ’ib qilish bo’yicha ishlarni, xususan, mumtoz adabiyotimizni qadrlashga undaydi.

Alisher Navoiy ijodi — ma’nolar ummoni, beba ho xazina. Ulug’ shoirning tafakkur gavharlarini kashf etish, ulardan bahramand bo’lish dilga quvvat, ruhga madad bag’ishlaydi, bizni komillik sari etaklaydi. Navoiy ijodi — hikmat va tamsillar, har zamon, har davr uchun ham saboq bo’ladigan o’lmas g’oyalar, fikr-qarashlar ummoni. Shoirning ehtirosli yoniq kalomi hamon qalbimizga nur sochib, yuksakliklarga chorlaydi, insoniylik mulkiga yetaklaydi. U o’z zamoni dardini qalamga oldi,adolat va insof tantanasi uchun kurashdi. Goh tarixni ibrat qilib, goh valisifat zamondoshlari obrazini yaratib, goh ulug’ idellarga havola qilib, insonlarga ta’sir etish, ularni xayr va savob ishlarga da’vat qilish bilan jamiyatni o’nglash, inson zotini sharaflash uchun qayg’urdi, butun iste’dodi, ilmini shunga sarfladi.

---

<sup>3</sup> [www.google.uz](http://www.google.uz)

<sup>4</sup> Mirziyoyev.Sh.Erkin va farovon, demokratik O’zbeiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.:“O’zbekiston”,2016,5-b.

O‘quvchining shaxslik sifatlarini shakllantirishda adabiyot fani hal qiluvchi ahamiyatga ega. Albatta, bu borada yozuvchining ijod dunyosiga kirish va shu orqali bola ongi, didini o‘sirish asosiy maqsad bo‘lishi talab etiladi. Zero, go‘zal badiiy asarlar o‘quvchi fikrini boyitish va hissiyotlarini tarbiyalashning samarali usulidir. Bu yo‘nalishda darslik va majmualardan o‘rin olgan o‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarini mohirona tahlil qilishni yo‘lga qo‘yishgan.<sup>5</sup> Xususan, Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini o’rganish, tahlil qilish va sharhlash, uni o‘quvchilarga yetkazib berishda lug’atlar ustida ishlash hamda bu ishga o‘quvchilarni bir xilda jalgan qilish kata agamiyatga ega. Lug’atlar ustida ishlash jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qo’shib olib borish va dars jarayoniga o’rni va me’yorida qo’llash yaxshi samara beradi.

Navoiyning “Xamsa” asari tarkibiga kiruvchi “Layli va Majnun” dostonini ta’lim jarayonida qo’llash yo‘llari va lug‘at yordamida tushuntirish hamda bu yo‘llarning ahamiyatini ishimizni yoritish jarayonida ochib berishga harakat qilamiz.

---

<sup>5</sup> Aliqulova.N.Adabiyot o’qitishda badiiy tahlil masalalari. –T.: “Til va adabiyot ta’limi” jurnali,2018,3-son,37-b.

## **I bob. Ta’lim jarayonida Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini o‘rgatish usullari**

Alisher Navoiyning ijodiy va axloqiy qiyofasi bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda ko‘rinadi. Shuning uchun shoir ijodining xususiyatlarini belgilashga urinar ekanmiz, uning axloqiy qiyofasini ham bir yo‘la yorita borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuning orqali Alisher Navoiy ijodining qanday ekanini, nimaga qaratilganligini ko‘rsatib, unga bo‘lgan munosabatini ham ifoda etish kerak. Hazrat Navoiyning hayotda qilgan ishlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xalqning turmushini yaxshilashga, og‘ir qismatini yengillashtirishga qaratilgan savobli va xayrli ishlari, nasriy va nazmiy asarlarining mazmun- mohiyati umuminsoniy va gumanistik ruh bilan sug‘orilgan. Mutafakkir insonparvarlik tushunchasiga ijtimoiy mazmun beradi. Uningcha, kamtarlik, vafodorlik, nafsni tiyish, rostgo‘ylik, saxiylik, donolik, muhtoj va yetim-esirlarga yordam berish, bag‘rikenglik, muloyimlik, shirinsuxanlik, shijoatkorlik, ezgulik, mehr-muruvvat, rahmdillik, odamiylik -bularning hammasi insonparvarlikning tarkibiy qismi bo‘lib, insonni kamolot sari yetaklaydi. Buyuk insonparvar shoir o‘rta asrdagi Uyg‘onish davrining boshqa ulug‘ zotlari singari butun hayotida haqiqiy inson qanday bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi. U o‘z davridagi nohaqlikka,adolatsizlikka qarshi kurashdi va buni o‘z asarlarida ifodaladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘z navbatida uning asarlaridagi insonparvarlik va ezgulik g‘oyalarining o‘ziga xos talqinini yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Navoiy “Xamsa” tarkibiga kiruvchi uchinchi, ya’ni «Layli va Majnun» dostonining yozilish tarixini hech qaerda qayd etmagan. Abduljamil kotib dostonning ko‘chirilgan yilini hijriy 889-yilning zul-qa’da oyi, melodiy 1484-yilning noyabr oyi deb belgilagan.<sup>6</sup> «Layli va Majnun» asari 1484-yilda yozilgan bo‘lib 36 bob, 3622

---

<sup>6</sup> Hayitmetov.A. “Xamsa”ning yaratilish jarayoni(“Xamsa” haqida ikki maqola). [www.google.uz](http://www.google.uz)

baytdan iborat. U hazaji musaddasi axrabi maqbuzi makfuf ( mafuvlu , mafo‘ilun, fauvlun - - V V-V- V --) vaznida yozilgan. Sharq adabiyotidagi sevgi haqidagi dostonlar orasida “Layli va Majnun” eng g‘amgin va dardli asar hisoblanadi.<sup>7</sup>

Navoiyning «Layli va Majnun» ida ruhiyat tasviri chuqur aks etgan. Asar voqeasi haybatli tun tasviri bilan boshlanadi. Unda ikki yoshning dardga to‘la ishq-u muhabbat haqida so‘z boradi. Ular bahor faslida sevishib qoladilar va tabiat so‘lg ‘in tus olgan kuz faslida halok bo‘ladilar.<sup>8</sup>

Hozirgi vaqtida kasb-hunar kollejlarida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishiga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qo‘lgan holda, unga turli-tuman o‘quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni o‘qilona tashkil qilinishi, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, tadqiqot, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli oyinlar metodlarini qo‘llash, o‘quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, turli baholash metodlaridan foydalanish, ta’lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi. Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Bu metodlar qo‘llanilganda o‘qituvchi o‘quvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.

---

<sup>7</sup> Safo Matjon va Sharafjon Sariyev. O‘zbek adabiyoti. “Yurist-media markazi”, T.2008.119-b.

<sup>8</sup> O’sha kitob. 120-b.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni Nazira G‘ulomovaning akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mo‘ljallangan darsligida<sup>9</sup> va akademik litseyning 2-bosqich talabalari uchun mo‘ljallangan adabiyot darsligida<sup>10</sup> berilgan. Biz ushbu bobda Nazira G‘ulomovaning akademik letsiy va kasb-hunar kollejlari uchun mo‘ljallangan darsligida berilgan «Layli va Majnun» dostonini dars jarayonida talabalarga o‘rgatish usullari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostonini o‘rganish bugungi kunda ta’limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu asar bilimli o‘quvchilarni tayyorlash bilan birga ma’naviy va axloqiy barkamol shaxslarni shakllantirishday vazifani ham bajaradi. Bunday vazifani bajarishda o‘quvchilarga mumtoz adabiyotning o‘lmas namunalari bilan yaqinroqdan tanishish imkoniyatini yaratish muhim didaktik zarurat hisoblanadi.<sup>11</sup>

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida Alisher Navoiy adabiy merosining yosh avlod tarbiyasida tutgan o‘rni haqida shunday degan edilar: «Biz bu beباho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz».<sup>12</sup> Chunki Alisher Navoiy o‘z qahramonlari siyosida, aqliy, jismoniy hamda ruhiy yetuklik fazilatlarini aks ettirib, ularni boshqalarga ibrat sifatida tasvirlaydi. Hazrat Navoiyning asarlari yoshlarning

<sup>9</sup>G‘ulomova.N.Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mo‘ljallangan darslik.T.: “Sharq”,2013,127-b.

<sup>10</sup>To‘xliyev.B va b.Akademik litseyning 2-bosqich talabalari uchun mo‘ljallangan adabiyot darsligi.T.: “Cho’lpox”,2010.

<sup>11</sup>Sariboyeva.M.Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini o‘rganish.T.: “Til va adabiyot ta’limi” jurnalı,2010-y. 4-son,16-b.

<sup>12</sup>Karimov.I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008. 48-b.

barkamol shaxs bo‘lib shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ko‘rinadiki, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarni barkamol shaxslar qilib tarbiyalashda Alisher Navoiyning komil insonga xos ma’naviy fazilatlar aks ettirilgan epik asarlarini o‘rgatishning samarali zamonaviy yo‘llarini tadqiq etish, o‘qitish amaliyotiga bu borada qo‘l keladigan muayyan tavsiyalar tizimini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-metodik muammodir. Alisher Navoiyning epik asarlarini o‘qitishda o‘quvchilarning faolligini ta’minlashga qaratilgan interfaol usullardan bir qanchasi ta’lim amaliyotida sinab ko‘rildi va ijobiy natijaga erishildi. Shoirning «Layli va Majnun»<sup>13</sup> dostonini o‘tishda biz quyidagi dars usullaridan foydalandik.

Darsning maqsadi qilib o‘quvchilarning dostonidagi sevgi va vafo tasvirini anglashlariga erishishni belgilash mumkin. Darsni kichik ma’ruza, yakka ishlangan holda tashkil etish mumkin. Refleksiya usulida o‘quvchilar o‘z fikrini mantiqan jamlab, bitta jumla bilan ifodalashlari kerak bo‘ladi, aks holda o‘quvchilar «taassurotlarim» deganda butun boshli bir matn tuzishi yoki uzundan-uzoq gapirishi mumkin. Darsda kartochkalar, «Xamsa»ga ishlangan surat va miniaturalar, qo‘srimcha adabiyotlardan foydalansa bo‘ladi. O‘tgan darsda o‘quvchilarga darslikdagi «Layli va Majnun» dostonidan parchani mustaqil ravishda o‘qib kelish topshirig‘i berilgan. Shu bois o‘quvchilardan «Layli va Majnun» sevgisi haqida bir necha jumla bilan o‘z munosabatini ifodalash topshirig‘ini berib, unga 5 daqiqa vaqt belgilanadi. Bu fikrlarni o‘quvchilarni 3 guruhsiga ajratib, “FSMU” usuli asosida tahlil qilib chiqiladi. “FSMU- texnologiyasi”- munozarali masalalarni hal etishda, baxs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminari yakunida (o‘quvchilarning o‘quv-

---

<sup>13</sup> G‘ulomova.N.Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mo’ljallangan darslik.T.: “Sharq”,2013,200-b.

seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o‘quvchilarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishda, qay darajada egallaganliklari baholash va bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.<sup>14</sup> “Farhod o‘zbek adabiyotida mukammal yaratilgan komil inson obrazidir” – ushbu jumlaga o‘quvchilar quyidagi usulda javob beradilar:

F- fikringizni bayon eting.

S- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

Masalan, “Layli va Majnun - haqiqiy ishqni kuylovchi muhabbat egalari” jumlasini yuqoridagi usul oraqli tahlil etishadilar.

“T-chizma” usuli orqali talabalar ikki guruhga bo‘lingan holda Layli va Majnunga oid sifatlarni jadvalga joylashtirishlari ham mumkin. “Layli va Majnun” dostonida shoir Layli misolida ilm olishga intilayotgan ziyoli, ma’rifatli qizni ko‘radi. Laylining ilm olishga ishtiyoqini payqagan otasi qizi uchun maxsus maktab ochib, barcha qabila bolalari va qizlarini ham bilim olishga chorlaydi. Layli maktabga o‘z dugonalarini bilan kelar ekan, ular ichida misoli olmosdek yarqirab turardi...<sup>15</sup> Shu va shunga o‘xshash bosh qahramonlar sifatlari joylashtiriladi.

---

<sup>14</sup> Umumiyy pedagogika nazariyasi va amaliyoti (ma’ruza matni). Navoiy, 2012, 35-b.

<sup>15</sup> Ahrorova.Z.Alisher Navoiy ijodida ma’rifatli ayollar madhi.T.: “Til va adabiyot ta’limi” 2019-yil 2-son 43-b.



Bundan tashqari talabalarni asar bosh qahramonlari haqida qay darjada ma'lumotga va taassurotga egaligini “Esse” usuli orqali tekshirish mumkin. Esse – taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha so`z hajmidagi insho. Esse – bu muallifning ta'kidlab o'tadigan individual pozitsiyasidagi erkin ifoda etish shakli; shaxs yoki predmet bo'yicha umumiylashtirilgan yoki dastlabki dunyoqarashni o'z ichiga oladi. Asoslangan esse. Asoslangan esse - qo'yilgan savolga asosli javob keltirilgan yozma ishdir. Muallif ma'lum bir pozitsiyani egallaydi va uni himoya qiladi, bunda o'zining pozitsiyasini qo'llab-quvvatlash uchun bir qancha asoslangan isbotlarni keltiradi. Maqsad – muallif lozim topadigan qarashlarni boshqalarning ham qabul qilishiga ishontirish.<sup>16</sup>

Besh daqiqali esse usulidan foydalanishda o'quvchilar parchani qayta hikoyalashning yozma shaklini bajarishlari mumkin bo'ladi. Bunda o'quvchilar asardan qismni o'zlarini

---

<sup>16</sup> [www.google.uz](http://www.google.uz).

chiqargan xulosalar, mulohazalar va taassurotlari asosida yozma bayon qiladilar. O‘zлari uchun yoqqan yoki salbiyroq qahramonga maktub shaklida esseni yozishlari mumkin. Esse usulida o‘quvchilar o‘g‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishlari mumkin. Besh daqiqali esse – o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o‘quv mashg`uloti oxirida 5 daqiqa oralig`ida olib boriladi.

O`qituvchi taklif etishi mumkin:

- «Men bu ... haqida nimani o‘ylayman» yoki «Nima uchun, mening fikrimga ko‘ra ...» savollariga javob bering;
- o‘quv mashg`ulotida berilgan talabalar uchun yangi sanalgan g`oyani tavsiflash va sharhlab berish;
- olingan bilim, ko`nikmalar amaliyotda qo`llanilishini tavsiflash.

Ushbu ko`rinishdagi esse baholanmasligi ham mumkin. Ammo, o`qituvchi juftliklarga ajralish, ishlar bilan o`zaro almashish va yozilganlarni muhokama qilish taklifini berishi mumkin. Talabalar ikki guruhgа bo‘linib, 1-guruh Layliga, 2-guruh esa Majnunga bag‘ishlab esse yozishlari mumkin. Bu esa o‘quvchilarining ijodiy fikrlash qobiliyatini yanada oshiradi.

Sinkveyn- fransuz tilida «5 qator» ma’nosini bildiradi. Sinkveyn-ma’lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she’r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha(hodisa, voqeа, mavzu) to‘g‘risidagi axborot yig‘ilgan holda, o‘quvchi so‘zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish- murakkab g‘oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so‘zlar bilan ifodalash uchun muhim bo‘lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidalari:

- 1- qator: Mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi ( odatda ot tanlanadi).

- 2- qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).
- 3- qator: Mavzu doirasidagi xatti-harakat uchta so‘z bilan ifodalanadi.(3 ta fe’l yoki ravishdosh yoziladi).
- 4- qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to‘rtta so‘zdan iborat bo‘lgan fikr yoziladi.(4 ta so‘zdan iborat jumla yoziladi).
- 5- qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma’nosи unga yaqin bo‘lgan bitta so‘z yoziladi (mavzuga sinonim so‘z yoziladi).

Sinkveynlar quyidagi hollarda juda foydali bo‘ladi:

- Murakkab axborotni sintezlash uchun vosita sifatida;
- O‘quvchilar tushunchalarining yig‘indisini baholash vositasi sifatida;
- Ijodni taqdim etilishining vositasi sifatida.

“Layli va Majnun” dostonini o‘rgatishda, uning asosiy mazmunini singdirishda va o‘quvchilarning mustaqil fikrlarini bayon ettira olishda Sinkveyn usuli ham yaxshi samara beradi.

Masalan:

<b><i>Hijron</i></b>
<b><i>Qayg’uli, iztirobli</i></b>
<b><i>Yondiradi, intizor qiladi, sabrni sinaydi</i></b>
<b><i>Muhabbatdan ayro juftlik qismati</i></b>
<b><i>Ayriliq</i></b>

“


Dav

ra suhbati”” usuli - aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr- mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish usulidir. "Davra suhbati" usuli qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim

oluvchining bir-biri bilan "ko‘z aloqasi"ni o‘matib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi. Ta’lim oluvchilar esa o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi. Agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. O‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin bo‘ladi:


- Layli va Majnunning taqdirlari ayro bo‘lishiga asosiy sabab nimada deb o‘ylaysiz?
- Ota-onalarning farzandlari taqdiriga munosabatini qanday izohlaysiz?

Bu texnologiyalardan tashqari “Nima uchun” sxemasi asosida matnni qayta hikoyalab, mustahkamlash va o‘quvchilarning fikrini bilishga yordam beradi.



## “Nima uchun?” chizmasini tuzish qoidalari

1. Aylana yoki to`rtburchak shakllardan foydalanishi o`zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko`rinishini – mulohazalar zanjirini to`g`ri chiziqlimi, to`g`ri chiziqli emasligini o`zingiz tanlaysiz.
3. Yo`nalish ko`rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo`lgan yo`nalishingizni belgilaydi



Ushbu usulda o‘quvchilar bir-birlari bilan munozarali savol-javoblarni va fikrlarni aytishlari mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quvchilarga Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostonida sevgi va vafo tasviri mavzusini yuqoridagi kabi o‘rgatish talabalar ma’naviyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

## **II bob. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini o‘rganishda lug‘at bilan ishlash yo‘llari**

Navoiy asarlari bag‘rida jo bo‘lgan milliy va umuminsoniy qarashlar, fikrlar har bir inson uchun ne qadar zarur va ahamiyatli bo‘lsa, ularning zargarona ifodasi, bemisl mahorat natijasi o‘laroq tarkib topgan go‘zal shakli shu qadar jozibali, hayratlanarli. Ularni o‘qigan kishi, agar tom ma’noda uni tushunish, anglash baxtiga musharraf bo‘lsa shoirning ulug‘ donishmandligi oldida lol qolsa, yozmishlari badiiyati, ularning nafosati qarshisida dong qotadi. Shuning uchun adib asarlarning mazmuni, g‘oyaviy jihatlari tadqiqi ne chog‘liq dolzarb bo‘lsa, ularning badiiyatini o‘rganish, mahorat qirralarini ochib berish ham birdek zarur.

Navqiron avlod har bir mamlakatning ertangi kuni, jamiyatda o‘zgarishlarga sabab bo‘ladigan, bunyodkorlik g‘oyalarini hayotga tatbiq etuvchi, bir so‘z bilan aytganda, keljak bunyodkorlaridir. Shu bois yoshlar masalasi barcha davrlarda eng dolzarb bo‘lib kelgan. Albatta, yoshlarni ijtimoiy, ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, huquq hamda majburiyatlarini to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, jamiyatda munosib o‘rin egallahslariga qulay sharoit yaratish orqali ularni yurt taqdiri va kelajagini hal qiluvchi katta kuchga aylantirish mumkin.<sup>17</sup>

Alisher Navoiy jahon adabiyotining eng yirik namoyondalaridan biridir. U yuqori kamolot bosqichidagi buyuk aql egasi – chin ma’nosи bilan geniral shoir, mutafakkir va ulug‘ gumanist edi. Navoiydan qolgan buyuk adabiy meros bir necha asrlar davomida O‘rta va Yaqin Sharq xalqlarining adabiyoti va fikriy taraqqiyotiga zo‘r ta’sir ko‘rsatib keldi.

---

<sup>17</sup> Yoshlar – yurt tayanchi, kelajagimiz vorislaridir. (tahririyat) Xalq ta’lini, 2017, 4-son, 4-b.

Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini lug‘at bilan ishlash yo‘llarini o‘rganish ishimizning asosini tashkil etadi. Buni yoritishdan avval lug‘at haqida va Navoiy asarlariga oid lug‘atshunoslik ishlari haqida to‘xtalib o‘tish o‘rinlidir.

Tildagi jamiki so‘zlar tarixi, izohi, imlosi kabi muhim masalalar bilan lug‘atshunoslik shug‘ullanadi. Mukammal tuzilgan lug‘at va so‘zlar u yoki bu tilning boyligini o‘zida to‘playdi. Lug‘atlar dastlab ikki guruhgaga bo‘linadi:

- 1) qomusiy lug‘atlar;
- 2) lingvistik (tilshunoslik) lug‘atlar.

Qomusiy lug‘atlarda ilmiy, siyosiy, adabiy hamda ishlab chiqarishga xos tushunchalar, borliqdagi predmetlar, hodisalar haqida ma’lumot beriladi.“O‘zbek milliy ensiklopediyasi”, “Salomatlik ensiklopediyasi”, “U kim, bu nima?” kabi lug‘atlar shular jumlasidandir.

Lingvistik lug‘atlar bir tilli va ko‘p tilli bo‘ladi. Bularga imlo, chappa (ters) lug‘at, orfoepik lug‘at, morfem lug‘at,o‘zlashma so‘zlar lug‘ati, frazeologik lug‘at, terminologik lug‘at, izohli lug‘atlar, tarjima lug‘atlari kiradi. 1981- yilda yaratilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati“ ikki jilddan iboratdir. Bu lug‘atda so‘zlearning o‘z va ko‘chma ma’nolari haqida to‘la ma’lumot beriladi. Tildagi barcha so‘zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi masalalar lug‘atshunoslik (leksikografiya)da o‘rganiladi. Lug‘atlar ilmiy maqsadlarda tuziladi.<sup>18</sup>

XIX asrga kelib, Yevropada Alisher Navoiy asarlari va uning asarlari asosida tuzilgan lug‘atlarni nashr etish ishlari boshlanadi. Fransuz sharqshunosi Katrmer 1841- yilda e’lon qilingan majmuasiga Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn” va “Tarixi muluki ajam” asarlarini kiritadi. Rus olimi I.N.Beryozin ham o‘zining “Turk xrestomatiyasi” nomli kitobiga shoir asarlaridan parchalar kiritadi. Rus sharqshunosi

---

<sup>18</sup> Xolmurodova. J. O‘zbek tili (o‘quv qo’llanma), T, 2008, 21-22b

V.V.Velyaminov 1868-yilda Aloyi binni Muhibiyning “Al lug‘at-un Navoiyat v-al-istishhodat ul chig‘atoiyat” (“Navoiy lug‘ati va chig‘atoi tili dalillari”) lug‘atini Sankt-Peterburgda nashr ettiradi. Fransuz sharqshunosi Pave de Kurteyl esa Navoiy asarlaridan foydalanib, lug‘at tuzadi.<sup>19</sup>

Modomiki, talabalarning so‘z boyligini oshirish o‘zbek tili va adabiyoti mashg‘ulotlarining asosiy vazifalaridan biri ekan, ularni turli lug‘atlar bilan tanishtirish va bu lug‘atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish, ayniqsa, muhim masala hisoblanadi. Lug‘at imlo savodxonligini oshirish, so‘z boyligini kengaytirishning muhim manbai, talabaning asosiy maslahatchisidir. Lug‘atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish avvalo ularda ehtiyojni tarbiyalashdan boshlanadi. Chunki ehtiyoj sezilmasa, talaba lug‘atga murojaat qilmaydi. Ma“lum bir so‘zning imlosi, ma’nosи, ma’nodoshi, qarama-qarshi ma’nosи, uyadoshini bilish zaruriyati ehtiyojni vujudga keltiradi. Talabalarni ular faoliyatida zarur bo‘ladigan lug‘at turalari bilan tanishtirishga alohida e’tibor berish kerak. Chunki turli lug‘atlar bilan tanishgan talaba nimani qayerdan izlash kerakligini ham yaxshi biladi.

Lug‘atlardan tez va to‘g‘ri foydalanish uchun o‘quvchi zarur malakalarga ega bo‘lishi lozim. Lug‘at bilan ishslash uchun zarur malakalardan yana biri ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishdir. Topshiriqni bajarish uchun qaysi lug‘atga murojaat etish kerakligini bilgan talaba, shubhasiz, undan samarali foydalana oladi.

Lug‘atlar turli-tuman bo‘lgani kabi, ular bilan ishslash usullari ham rang-barangdir. Talabalarning lug‘at bilan ishslash malakalarini shakllantirish uchun muayan ish turlari talab etilsa, ularning imlo savodxonligini oshirish uchun tamoman boshqa, so‘z boyligini rivojlantirish uchun esa o‘ziga xos maxsus mustaqil ish turlaridan foydalanish talab qilinadi.

---

<sup>19</sup> Jalilov. B.O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (ma’ruzalar matni). Andijon 2012,343-b

Mukammal tuzilgan lug‘at va so‘zliklar u yoki bu tilning boyligini o‘zida to‘playdi. Lug‘atlar qadimdan yaratib kelingan. Masalan, Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan XI asrda yaratilgan “Devonu-lug‘otit-turk”, XVI asrda uch tomonli turk tilida yaratilgan “Abushqa” lug‘atlari tarixdan bizga ma’lum. Alisher Navoiy asarlari uchun yaratilgan 4 tomlik lug‘atda 60000dan ortiq so‘z berilgan.<sup>20</sup>

Akademik litseyning 2-bosqich talabalari uchun mo’ljallangan adabiyot darsligida Navoiyning “Layli va Majnun”<sup>21</sup> dostonidan parcha keltirilgan bo‘lib, uni tushunish uchun ostida berilgan lug‘atlardan foydalanishni talab etadi. Chunki Navoiy ijodini lug‘atlarsiz tushunish, asarning badiyilagini anglash va mag‘zini chaqish mumkin emas. Quyida darslikda berilgan **“Otasi Majnunni ishq dashtidan keltirib, Ka'baga olib borgani va majnunning esa munojot bilan ko‘glidagi yaralarini yorg‘oni, hojilar orasida g'avg'o qo‘porg'oni”**<sup>22</sup> parchasini lug‘atlar asosida tahlili va asar mazmunini ochishda lug‘atlarning ahamiyatini ko’rsatishga harakat qilamiz.

“Otasi Majnunni ishq dashtidan keltirib, Ka'baga olib borgani va majnunning esa munojot bilan ko‘glidagi yaralarini yorg‘oni, hojilar orasida g'avg'o qo‘porg'oni”

Mundoq dedi noqili maoni,  
Qilg'och bu badi so‘z bayoni:  
Kim qochti chu ul ramida<sup>23</sup> payvand,

---

<sup>20</sup> Rahimova.N. Lug‘atlar ustida ishslash orqali talabalarning so‘z boyligini oshirish(O’zbek tili va adabiyotida fanidan metodik ko’rsatma), T.:2015,6-b.

<sup>21</sup>To’xliyev.B va b.Akademik litseyning 2-bosqich talabalari uchun mo’ljallangan adabiyot darsligi.T.: “Cho’lpon”,2010.70-b.

<sup>22</sup> To’xliyev.B va b.Akademik litseyning 2-bosqich talabalari uchun mo’ljallangan adabiyot darsligi.T.: “Cho’lpon”,2010.75-b.

<sup>23</sup> ramida-hurkkan, cho’chigan qo’rqqan, hurkib qochgan

Ul tun uyidin ramida monand.  
Kunduz eli uyda topmay oni,  
Boshlab yana navha<sup>24</sup>-yu azoni.  
Har yon chiqibon yoyog'-u otliq,  
Qaytib bori topmayin uyotliq.  
Lol etti yana otosini g'am,  
Behol-u hazin onosini ham.

Bu yerda Majnun shu darajada ishqqa mast bo'ganki, uyidan qochib keadi, Kunduz ham, tun ham topib bo'lmaydi. Ertalabdan ishqdan mungli, nola chekkan holda yig'lagani eshitiladi. Majnunni topolmasdan, uning nola-yu fig'oniga ota-onasi hayron qoladi, bu holatlardan charchaydi.

O'lturdilar ikki zori behud,  
Ko'p fikr etib ettilar yana rad.  
Ko'p so'z yuzin ul ochib bu yopti,  
Oxir munga so'z qaror topti:  
Ota-onasi bir-birlariga ko'plab fikrlarni aytdilar. Kelishdilar va yana rad etishdilar.  
Oxiri shunday qarorga keldilar.

Kim har saridin uzub tavaqqu<sup>25</sup>,  
Tengriga-o'q aylabon tazarru.  
Haqdin ikov oni istagaylar,  
Paydo-vu nihoni istagaylar.  
Xushvaqt qilib niyoz<sup>26</sup> ahlin,

---

<sup>24</sup> navha-tovush chiqarib yig'lash, ulish, mungli yig'i, nola

<sup>25</sup> tavaqqu-biro ishning voqi bo'lishiga ko'z tutish, umid bilan qarash

Osuda zamir roz ahlin.

Har go'shanishin-u benavoyi,

Qilg'aylar aning uchun duoyi.

Haq rahm etib ikki benavog'a,

Bergay oni ul oto-onog'a.

Ular Ollohga iltijo qilib, o'g'lidan bu dardni olishini va farzandini qaytarib berishlarini so'ramoqchi bo'ldilar.

Haj mavsumi erdi ittifoqi,

Aylab bori Ka'baning yaroqi.

Borib necha kun tilab o'z-u yot,

Majnunni topib keltirdilar bot.

Otasi Haj safariga chiqdi va Ka'baga bordi. Oxiri Majnunni topib keldilar.

Qildilar ani ul ishdin ogoh,

Ul ish anga ham bor erdi dilxoh.

Niyatini Majnunga aytdilar. Majnunning ham ko'nglida Ollohga iltijo qilish niyati bor edi.

O'lturtub ani amori<sup>27</sup> ichra,

O'tni manqali hisori<sup>28</sup> ichra.

Fursatni bori bilib g'animat,

Ka'ba sori qildilar azimat.

---

<sup>26</sup> niyoz-yolvorish, o'tinish, umid

<sup>27</sup> amori-odam tashish uchun tuya yoki filga ortilgan kajava

<sup>28</sup> hisori-qo'rg'on, qal'a, istehkom

Vaqtni boy bermaslik uchun qo'rg'ondan kajavaga minib, Ka'ba tomon ketdilar.

Chun bo'ldilar ul haramg'a mahram,  
Yo'q, yo'q, ne haramki, Arshi a'zam.  
Yer uza sipehrdin<sup>29</sup> nishone,  
Tufroq uza balki osmone.  
Yer maqdamidin falakka monand,  
Ul bu falak uzra Arsh payvand.  
Ular ko'zlagan manzilga bordilar. Ya'ni Olloh uyiga.

Har rukni kelib sukung'a<sup>30</sup> maqrunk<sup>31</sup>,  
Arkon anga misli rubi maskun<sup>32</sup>.  
Turarjoyga yaqinlashgan sari hamma yoq tinch, osoyishta bo'lardi.

Yo so'fiyi mazhari jamoli,  
Juz haqdin o'lub zamiri xoli.  
Yer natida o'lturub muraqqa<sup>33</sup>,  
So'fi kibi egnida muraqqa.  
Majnunning egnida yamalgam eski so'filarning to'ni.

O'rnida nechukki qutbi sobit,

---

<sup>29</sup> sipehrdin-osmon, osmon gumbazi; falak

<sup>30</sup> sukung'a-tinchish, osoyish, harakatsizlik

<sup>31</sup> maqrunk-yaqinlashgan, yaqin

<sup>32</sup> maskun-kishilar yashab turgan joy, turarjoy

<sup>33</sup> muraqqa-yamagan, quragan (to'n haqida)

Atrofida ushoq toshi savobit<sup>34</sup>.

Ne qutbki tegrasida aqtob,

Mujgon bila xokro‘bi<sup>35</sup> abvob.

Mehnat xasin anda topmayin el,

Azbaski<sup>36</sup> malak qanotidin yel.

Avjida maloyik uchmug‘i fosh,

Har kecha nechukki xayli xuffosh<sup>37</sup>.

So‘zdek topibon asosi mahkam,

Ko‘zdck kiyibon libosi motam.

Tavfidin<sup>38</sup> ulusqa zilli shohi,

Atrofi sipehr sajdagohi.

Majnunga ko‘rungach ul salobat,

Ko‘ngli sari yuzlanib mahobat.

Tosh atrofida odamlar qotib qolgan yulduzlar kabitdir. Omma u yerda xizmatkorlardek yurardi. Ziyorat qilish jarayonida Majnunning ko‘ziga turfa holatlar ko‘rindi va gavdalandi.

Ishq etti dimog‘ini mushavvash<sup>39</sup>,

Ko‘ngli aro shavq yoqti otash.

Ishq Majnunning ko‘nglini besaranjom qildi, shavq ko‘ngliga olov yoqdi.

Yog'durdi ko‘zi yoshin yog'indek,

---

<sup>34</sup> savobit-turg‘un yulduzlar

<sup>35</sup> xokro‘bi-yer supuruvchi, xizmatkor

<sup>36</sup> azbaski-chunki, shuning uchun

<sup>37</sup> xuffosh-ko‘rshapalak

<sup>38</sup> tav-aylanish, yuzni surtish, ziyorat

<sup>39</sup> mushavvash-tashvishli, besaranjom

Oh urdi-yu sekridi choqindek.

Yomg'irday ko'zyoshi oqdi, oh urdi va chaqmoqdek sakradi.

Davrida haramning o'ldi doyir,  
Yer girdida misli charxi soyir<sup>40</sup>.  
Boshqa inson kabi bo'lib qoldi.

Yuz bila qilib toshini zarkor,  
Ashkin<sup>41</sup> oqizib nechukki pargor<sup>42</sup>.  
Yetti qat osmon bo'ylab ko'z yoshini oqizdi.

Ruxsori supurgach ul eshikni,  
Halqasig'a urdi chust<sup>43</sup> ilikni.  
Har bormog'ig'aki rust o'lub tob.  
Bir halqag'a tushti necha qullob<sup>44</sup>.  
Ul tavqi murod ichiga darham,  
Qullobi muhabbat o'ldi mahkam.  
Qullobi chu bo'ldi halqag'a band,  
Zanjiri tazallum<sup>45</sup> o'ldi payvand.

---

<sup>40</sup> soyir-boshqa, o'zga

<sup>41</sup> ashkin-ko'z yoshi

<sup>42</sup> pargor-yetti qat osmon

<sup>43</sup> chust-chaqqon, tez, mahkam

<sup>44</sup> qullob-qarmoq, ilmoq, changak

<sup>45</sup> tazallum-zulmdan zorlanish, dod-fig'on

Bir nav tazallum ohi chekti,  
Ul dud ili g‘am sipohi chekti.  
Ishq dardidan Majnun juda yomon qiynaladi. Zorlanib, dod-fig’on qilib oh urdi.

Kim charx libosin etti ul dam,  
Ka'ba to‘nidek libosi motam.  
Kiyimi ham motamda kiyiladigan kiyimdek edi.

O’qituvchi shu tariqa lug’atlar asosida matnni tahlil qilishni o’rgatadi. Talabalarga tahlilni mustaqil bajarish topshirig’i berilishi kerak. Chunki ular matn bilan mustaqil ishlash ko’nikma va malakalarini shakllantirishlari lozim. Talabalar 3 guruhga bo’linadi. Har bir guruh o’quvchilarini dostondan keltirilgan parchani ketma-ketlikda lug’atlar bilan ishlagan holda tahlil qilishlari kerak bo’ladi. Tahlilda xatolik ketsa, o’qituvchi hamkorligida to’g’rilab borilad.

## **1-guruh:**

Ayblab ani bo‘yla motami zor,  
Faryod ko‘tardi motamivor.  
Dediki: «Ayo hakimi dono,  
Har hukmda hokim-u tavono<sup>46</sup>!  
Ey, ishq o‘tin aylagan jahonso‘z,  
Andin meni notavonni jonso‘z.  
Ey, urg'on ul o‘tni xirmanimg'a<sup>47</sup>,

---

<sup>46</sup> tavono-kuchli, qudratli

<sup>47</sup> xirmanimg'a-xirmon, uymoq

Xirman neki, jon bila tanimg'a.  
Ey, ishq angakim, mulozim etkan,  
Hijron o'tin anga lozim etkan!  
Ey, kimgaki ishqdin solib band,  
Talx<sup>48</sup> aylab anga nasihat-u pand.  
Ey, ishq ila onikim qilib fosh,  
Atfoldin<sup>49</sup> anga yug'durub tosh!  
Ey, kimniki aylagan parichehr,  
Devonasi sori bermagan mehr!  
Ko'ngul sadafida<sup>50</sup> gavhari ishq,  
Ey jon aro solib ozari ishq.  
Ishq ichra bukun meni shikasta,  
Kelmish men asir-u poybasta<sup>51</sup>.  
Har ragi<sup>52</sup> tanim ichra ishq bandi,  
Jon rishtasi ishqning kamandi.  
Tori badanim aro bo'g'unlar,  
Ham ishq tanobidin tugunlar.  
Jismim aro dog'i begarona<sup>53</sup>,  
Ishq o'tlaridin kelib nishona.

---

<sup>48</sup> talx-achchiq

<sup>49</sup> atfol-yosh bola, go'daklar

<sup>50</sup> sadaf-dengiz shillig'I, marvarid qobig'i

<sup>51</sup> poybasta-giriftor, oyog'li bog'li

<sup>52</sup> ragi-tomir, qon tomiri

<sup>53</sup> begarona-cheksiz, bahosiz, hadsiz

Mamlu<sup>54</sup> aning o‘ti birla jonim,  
Jonom neki, mag'zi ustuxonim.

## 2-guruh:

Bu ishq o‘tikim bayon qilurmen,  
Muhlik<sup>55</sup> g'amini ayon qilurmen.  
Demonki, meni tarabg'a xos et,  
Yoxud g'ami ishqdin xalos et!  
Dermanki, menga bu o‘tni har dam,  
Afzun qil-u, qilma zarraye kam!  
Chek aynima ishq to‘tiyosin,  
Ur qalbima ishq kimi yosin!  
Ko‘nglumg'a fazo harimi<sup>56</sup> ishq et,  
Jonmiga g'izo<sup>57</sup> nasimi ishq et!  
Ishq isidin et damimni mushkin,  
Ishq o‘tudin et yuzumni rangin!  
Bo‘ymirn uza, «Ayn»in aylagil tavq<sup>58</sup>,  
“Shin”in qil ichimga shu’layi shavq.  
“Qof”in<sup>59</sup> menga ayla ko‘hi anduh,  
Ko‘nglumga g'amini ko‘h to ko‘h.

---

<sup>54</sup> mamlu-to’lgan, to’la

<sup>55</sup> muhlik-halok qiluvchi, o’ldiruvchi

<sup>56</sup> harim-haram

<sup>57</sup> g'izo-oziq, yegulik

<sup>58</sup> tavq-halqa, shoda, bog'

<sup>59</sup> «Ayn» , “Shin” , “Qof”in- arab raqamlari

Uch nuqlasini sharora<sup>60</sup> ayla,  
Iklisini ikki xora ayla.  
Ul shulag'a ham kerak sharora,  
Bu qofg'a dog'i xora pora.  
Boshimg'a ur ushbu xorani ham,  
Jonimg'a sol ul sharorani ham.  
Yuz munchag'a elni moni etrma,  
Ming munchag'a meni qoni elma.  
Ko'nglum g'am ila to'q ayla, yo Rab!  
Ishq ichra meni yo'q ayla, yo Rab!  
Derlar menga: "Ishqni unutg'il,  
Layli g'amidin kanora<sup>61</sup> tutg'il"  
Olloh-olloh, bu ne so'z o'lg'ay,  
Ul qavmg'a Tengri uzr qo'lg'ay.  
Ya rabki, bu xushguvor<sup>62</sup> boda,  
Jomi<sup>63</sup> talabimg'a quy ziyoda!  
Ul bodadin o'yla tut menga qo'sh,  
Kim yadima hargiz o'lmasun hush!  
Layli ishqin tanimda jon qil,  
Layli shavqin<sup>64</sup> ragimda qon qil.

---

<sup>60</sup> sharora-uchqun, alanga

<sup>61</sup> kanora-qirg'oq, chet

<sup>62</sup> xushguvor-xushta'm, mazali

<sup>63</sup> jomi-qadah, may piyolasi

<sup>64</sup> shavq-zo'r havas, istak, kayf

Dardini najotim et Ilohi,  
Yodini hayotim et Ilohi!  
Har damki emas aning xayoli,  
Ko‘nglum uyin andin ayla xoli!  
Har o‘tki, yo‘q anda ishq so‘zi,  
Men xastag'a qilma oni ro‘zi<sup>65</sup>!

### **3-guruh:**

Huyiki<sup>66</sup> emas aning g'amidin,  
Fosh etma bu telbaning damidin.  
Dardimg'a xayolini eabib et,  
Jonimg'a visolini nasib et!  
G'ayrin<sup>67</sup> nazarimda foni ayla,  
Mehrin menga jovidoni<sup>68</sup> ayla!  
To bo‘lsa hayotdin nishonim,  
Savdosini qil tan ichra jonim!  
Jon chiqsa bu jisim notavondin,  
Yodi bila o‘q chiqor jahondin.  
Tanlar tirilurga qo‘ysalar yuz,  
Ko‘yi yelidin tanimni turguz!  
Do‘zax menga menga jovudoni,  
Ishqi o‘tidin qizitqil oni.

---

<sup>65</sup> ro‘zi-nasiba, tiriklik vositasi

<sup>66</sup> huy-huy tortib nola chekmoq

<sup>67</sup> g'ayrin-yot, begona, boshqa

<sup>68</sup> jovidoni-abadiy, begona, doimiy

Jannat sari cheksa sarnavishtim<sup>69</sup>,  
Vasli haramini qil bihishtim.  
Onsiz meni bir dam etma mavjud,  
Budumni qil onsiz o'lsa nobud!"  
Garm<sup>70</sup> aylabon oni bu munojot<sup>71</sup>,  
Alrofida lol ahli hojot.  
Ul qoyil-u yuz asiri g'amgin,  
Borining o'lub hadisi «omin».  
Bexud qolibon faqir otosi,  
Hayron bori xesh-u aqrabosi<sup>72</sup>.  
Bu navha<sup>73</sup>-vu ashk nolishidin,  
Bori yudilar ilik ishidin.  
Ul ham chu tugatti navhayi dard,  
Bo'ldi yana aql-u hushidin fard<sup>74</sup>.  
Oxir ko'tarib necha dilafgor<sup>75</sup>,  
Manzillarin o'ldilar talabgor.  
Ishq o'ti ko'ngulni kuydurur chog',  
Manig'a<sup>76</sup> su<sup>77</sup> quysalar bo'lur yog'.

---

<sup>69</sup> saarnavishtim-taqdir

<sup>70</sup> garm-qiziq, qizg'in, issiq

<sup>71</sup> munojot-yalinish, yolvorish

<sup>72</sup> aqrabosi-yaqinlar, qarindoshlar

<sup>73</sup> navha-nola, mungli yig'i

<sup>74</sup> fard-yakka, yolg'iz, ajralgan

<sup>75</sup> dilafgor-dilixasta, dili vayron

<sup>76</sup> manig'a-mustahkam qal'a

Haj tavfida<sup>78</sup> ishqini iroda,  
Kam aylab-u ul bo‘lub ziyoda.  
Ey, zoyiri<sup>79</sup> Ka‘bayi saodat,  
Lutfungdin etarmen istifodat<sup>80</sup>.  
Kim bizni dag‘i duoda yod et,  
Bu ishq o‘ti shu‘lasin ziyod et.

Mumtoz asarlarni o‘qish va tahlil qilish, ayniqsa, lug‘atlar orqali tahlil qilish talabalarni balki biroz zeriktirishi mumkin. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun lug‘atlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va usullar bilan qo‘sib olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar majmuaviy uzviy bog‘liqlikdagi tizim bo‘lib, unda ta’lim maqsadlari asosida belgilangan ko‘nikma va malakalar o‘quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga, ularda muayyan ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat elekmelntlarining ma’lum tartibga solingan to‘plami sifatida aks etadi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi o‘quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat. Bunda ta’lim maqsadlarining belgihanishi, ya’ni ta’lim kimga va nima maqsadda? berilishi, mazmunni tanlash va ishlab chiqish, ya’ni nimani? berish, ta’lim jarayonlarini qay tarzda? tashkil qilish, ta’lim metodi va vositalarini aniq belgilab olish, ya’ni qanday vositalar yordamida ta’lim berish, shuningdek, o‘qituvchilar malakasi darajasi, ya’ni kim? ta’lim berishi, erishilgan natijalarni qanday yo‘l bilan?

---

<sup>77</sup> su-suv

<sup>78</sup> tavf-dziyorat, aylanisha

<sup>79</sup> zoyiri-ziyoratchi, ziyorat qiluvchi

<sup>80</sup> istifodat-foydalanish,ilm olmoq

baholash metodlari markaziy o‘rinni egallaydi.<sup>81</sup> Berilgan parchaning har bir qatorida kamida ikkitadan lug‘atli so‘z berilgan. Uni tushunish uchun esa o‘quvchilar lug‘atli sozlarning ma’nosini bilishlari kerak bo‘ladi va qatorma-qator sharhlab ketishlari kerak bo‘ladi. Bu jarayon, albatta, o‘qituvchi boshchiligidagi amalga oshirilishi lozim. Masalan,

Bu silsila halqasida dilgir  
Bu nav chekar sadoyi zanjir.  
Kim, barri Arabda kamroni  
Bor erdi Arabqa hukmroni.<sup>82</sup>

Bu jumlanı sharhlashda o‘quvchilar izohtalab so‘zlarni izohi bilan yozilgan doskada ko‘rishlari kerak. Chunki doskada tahlil uchun yozilgan har qanday narsa esda ko‘proq qoladi. Izоhtalab so‘zlar quyidagilar:

- silsila- zanjir; tizma; tartib
- dilgir- ranjigan, xafa, bo‘g‘ilgan
- bu nav- bu xil(da); bu tarz (da)
- barri Arab- Arab yeri
- komron- o‘z maqsadiga erishgan, baxrli; hokim; hukmronlik qiluvchi

Shu nuqtada talabalarga mustaqil fikrlarini aytishga va isbotlashga imkoniyat paydo bo‘ladi. Lug‘atlardan foydalangan holda parchada shoir nima demoqchiliginini aytishga harakat qilishlari kerak. Ularning yosh jihatlari ham tahlil qilishga qodir hisoblanadi. Iloji boricha o‘quvchilar lug‘atlarni yod olishlari kerak bo‘ladi. Chunki o‘sha davr

---

<sup>81</sup> Muhitdinova.X.S.O‘zbek tilini o‘qitishda zamонавиъ yondashuvlar.O‘quv-uslubiy majmua,Toshkent,2006,39-40-b.

<sup>82</sup> To’xliyev.B va b.Akademik litseyning 2-bosqich talabalari uchun mo’ljallangan adabiyot darsligi.T.: “Cho’lpon”,2010.70-b.

namunalarida ham deyarli shu so‘zlardan foydalanilib ijod qilingan. Bundan tashqari o‘qituvchi talabalarning tezkor xotirasini sinash uchun “Kim ko‘p biladi” usulini qo‘llash mumkin. Bu usulni xohlagan predmetni va xohlagan mavzuni o‘rganishda qo‘llash mumkin. Bunda o‘qituvchi lug‘atlarni izohi bilan aralashtirilgan holda jadvalga joylashtiriladi. O‘quvchilar ularni to‘g‘ri joylashtirishlari kerak bo‘ladi. Har bir to‘g‘ri javob bir balldan baholanadi. Eng ko‘p to‘g‘ri javob topgan o‘quvchi rag‘batlantiriladi va baholanadi.

Silsila	ranjigan, xafa, bo‘g‘ilgan
Dilgir	Arab yeri
bu nav	zanjur; tizma; tartib
barri Arab	o‘z maqsadiga erishgan, baxrli; hokim; hukmronlik qiluvchi
Komron	bu xil(da); bu tarz (da)

Lug‘at yordamida tahlil qilinadigan asarlarni tushuntirishda har bir qismni turli yo‘llar bilan tushuntirish darsni qiziqarli va tushunarli bo‘lishiga yordam beradi.

**Mahkumi** aning necha qabila,  
**Iqbolig‘a istabon vasila.**  
 Bechora ulusqa chorasiz ul,  
**Xongustar-u** mehmonnavoz ul.  
 Osmoqdin aning qozoni tushmay,  
 Tun-kun o‘ti o‘chgali **yovushmay**.  
 Kim **bodiya** ichra yo‘l qilib gum,  
 Bu o‘tganga tiyra oqshom **anjum**.  
**Donish** anga kasb-u **jud pesha**,  
 Donish bila jud etib hamesha.  
 Ot-u tevasi hisob ila jup,

Qo‘y-u qo‘zisi hisobdin ko‘p.  
Aylab ani umri Sur’atoyin,  
Bir yosh yo‘qidin asr-u g‘amgin.  
Moli ko‘gtu, umri sust payvand,  
Farzandg‘a erdi orzumand.


Bu parchani tahlil qilishda biz klaster usulidan foydalanamiz. “Klaster” metodi o‘quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan. Biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishdan oldin o‘quvchilarining fikrlash faoliyatini jadallashtirishga hamda kengaytirishga xizmat qiladi.

Klasterlarga bo‘lish. Bu pedagogik strategiya bo‘lib, o‘quvchilarining u yoki bu mavzu bo‘yicha erkin va bemalol o‘yashga yordam beradi. U faqat g‘oyalar orasidagi bog‘lanishlarni fikrlashni ta’minlash imkoniyatini beradigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. U fikrlashning oddiy shakli emas, balki miya faoliyati bilan zid bog‘lanadi. Klasterlarga bo‘lishdan axborotlami chorlash bosqichida ham, fikrlash bosqichida ham foydalaniladi. U muayyan mavzu sinchiklab o‘rganilguncha fikrlash faoliyatini ta’minlashda foydalanishi mumkin. Klasterlarga bo‘lish talabalarning tasavvurlarini yangi bog‘lanishlari yoki ularning grafik ifodalarini ko‘rinishlarini ta’minlovchi sifatida ham o‘tganliklarini yakunlash vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin. Bu o‘z bilimlariga, muayyan mavzu to‘g‘risida tasavvuriga va uni tushunishga yo‘l ochadigan nazardagi strategiyadir.

Klasterlarga bo‘lish quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

1. Hushingizga kelgan barcha fikrlarni yozib olish. Bu fikrlarni muhokama qilmang, shunchaki yozib olavering.
2. Xatni (matnni) kechiktiradigan imlo va boshqa omillarga ham parvo qilmang.

3. Sizga berilgan vaqt nihoyasiga yetmagunga qadar yozishdan to‘xtamang. Miyangizga fikr kelishi to‘xtab qolsa, toki yangi fikrlar kelgunga qadar qog‘ozda nimalarnidir chizib o‘tiring.
4. Imkoniboricha, bog‘lanishi mumkin bo‘lgan g‘oyalami tizib chiqing. G‘oyalaming oqimi sifati va ular orasidagi aloqalarni chegaralab qo‘ymang. Klasterlarga bo‘lish bu juda moslashuvchan strategiyadir. Uni individual tarzda ham guruhda ham qo‘llash mumkin. Guruh faoliyatida u guruh g‘oyalaring tirgovichi sifatida xizmat qiladi. Bu esa talabalarni har bir amalda bo‘lgan bog‘lanishlarga, aloqalariga yaqinlashtiradi.<sup>83</sup>



<sup>83</sup>Azizxo'jayeva.N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.:”Adabiyot jamg’armasi”,2006, 116-b

Shu tariqa lug‘atlar ma’nosи aytilib ketilaveradi va parcha esa sharhlab, mazmuni ochilib borilaveradi.

Innovatsion usullardan biri bu B-B-B (bilamiz, bilishni xohlaymiz, bildik) jadvali bilan ishslashdir. «B-B-B» (bilamiz, bilishni xohlaymiz, bildik) usuli mashg‘ulot jarayonida matnni tushunishni kuzatishdagi grafik tashkilotchi hisoblanadi.

### B-B-B chizmasi

Taxminan nimani bilamiz?	Nimani bilishni xohlaymiz?	Nimani bildik?
-----------------------------	-------------------------------	----------------

«B-B-B» chizma usulidan boshqa mavzularni va fanlarni o‘qitishda matn bilan ishslash jarayonida keng foydalanish mumkin.

Bu usul quyidagi xususiyatlarga ega:


- matn (mavzu, bo‘lim) bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi;
- tizimli mulohaza qilish, tarkibga ajratish ko‘nikmalarini beradi;
- yakka tartibda (juftlikda) jadval rasmiylashtiriladi;
- quyidagi savolga javob beriladi: “Ushbu mavzu bo‘yicha siz nimani bilasiz?” va “Nimani bilishni xohlaysiz?” (Kelgusi ish uchun taxminiy asos yaratiladi);
- yakka tartibda (juftlikda) jadvalning 1 va 2- ustuni to‘ldiriladi;
- mustaqil ravishda ma’ruza matnnini o‘qiydi (ma’ruzani eshitadi);
- Jadvalning 3- ustunini mustaqil (juftlikda) to‘ldiradi.

Talabalar bundan avval ham lug‘at bilan ishlagan holda darslarni tahlil qilishgan. Demakki, ba’zi lug‘atlar izohi va ma’nosidan xabardor. Birinchi jadval bilgan lug‘atlar bilan to‘ldiriladi. Ikkinci qator, ya’ni “bilishni xohlayman” qismida

esa bir so‘z ikki va uch xil ma’noni bildirishi (silsila-zanjir; tizma; bo‘g‘ilgan) va matnda aynan qaysi ma’noda kelayotganini bililshni xohlashlarini va.b yozishlari mumkin. Uchinchi jadvalga esa olgan yangi ma’lumotlarni joylashtiradi. Bu usul talabalarning diqqatini jalb qilishga yordam beradi.

“Baliq skeleti” sxemasi – muammoning butun doirasi (maydoni)ni ifoda etish va uning yechimini topishga imkoniyat beradi. Tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Sxemasini tuzish qoidalari bilan tanishadi. “Suyak” yuqori qismiga muammo ichidagi muammo yoziladi, pastki qismiga esa ushbu muammo ichidagi muammo amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi faktlar yoziladi.

Mini guruahlarga birlashadi, o‘z sxemalarini taqqoslaydi va qo‘sishchalar kiritadi. Umumiy sxemaga jamlaydi. O‘qituvchi sharhlangan parchani mustahkamlash uchun qayta o‘qiydi. Talabalar esa parchadan esda qolgan tahliltalab sozlarni yuqori qismga yozishadi. Ma’nosini esa pastiga yozishadi va parchani mazmunini tushuntirib berishlari kerak bo‘ladi.



“Venn diagrammasi” bir-birini kesadigan ikki yoki undan ko‘p doiralarda ko‘riladi, ular o‘rtasida yozish uchun yetarli joy qolishi kerak. U g‘oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini (nimada ular kesishadi) ko‘rsatishi kerak. “Venn diagrammasi” metodi 2 va 3 jihatlari hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. “Venn diagrammasi”- grafik ko‘rinishda bo‘lib olingan natijalarni umumlashtirib ulardan bir butun xulosa chiqarishga ikki va undan ortiq predmetni tahlil qilish va o‘rganishda qo‘llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo‘ladi.

“Venn diagrammasi”ni amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich. O‘quvchilar (sheriklari bilan) ikki doirani to‘ldiradilar. Har bir doiraga ikki tushuncha e`tiborli tomonlari sanab o‘tiladi.

2-bosqich. O‘quvchilarni kichik guruhlarga (4-5 kishidan iborat) birlashtirib diagrammalarni taqqoslaymiz va to‘ldiramiz.

3-bosqich. Kichik guruh o‘quvchilariga bu tushunchalarning umumiy xossalarni aniqlashni taklif etamiz.

4-bosqich. Biror bir guruh vakili har bir tushunchaning o‘ziga xos tomonlarini o‘qiydi. Boshqalar zarurat bo‘lganda uni javobini to‘ldiradi.

5-bosqich. Boshqa guruh vakili ikki tushunchani birlashtiruvchi(umumiy) xususiyatlarini o‘qiydi. Boshqalar zarurat paydo bo‘lganda bu javobni to‘ldiradilar Bu usuldan lug‘atlar asosida mazmu-mohiyati ochib berilgan dostonda Layli va Majnun bir-biriga yetisholmaganliklari, sabablarining ijobiy va salbiy oqibatlari solishtiriladi.

Venn diagrammasi



“Boshqotirmalar usuli”da krossvord, chaynvord va boshqa boshqotirmalardan foydalanish mumkin.Yangi mavzuni o‘tishda yoki o‘tilgan mavzuni mustahkamlashda o‘quvchilar bilimini sinashda bu usul qiziqarliligi, tafakkur va xotirani o‘sirishi bilan ajralib turadi. Bu usul o‘qituvchidan ijodkorlik talab etsada, samaraning yuqori bo‘lishi bilan boshqa usullardan farq qiladi. Talabalar lug‘atlardan savollar tuzishadim ya’ni krossvord tuzishadi. Ushbu usul lug‘atlarni o‘quvchilar xotirasida yaxshiroq qolishiga va asar mazmunini to‘laroq ochishga yordam beradi..

“Kichik guruh” bilan ishslash usuli barcha fan sohalariga xos bo‘lib, bunda sinf o‘quvchilariga darsning boshida o‘qituvchi tomonidan 2-3-minut mavzudagi muammo haqida yo‘naltiruvchi topshiriq beriladi. So‘ngra o‘quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi.Bunda o‘quvchilar faol ishtirok etishga va bir- birlaridan o‘rganishga ega bo‘lishlari lozim.

- Bu quyidagi tartibda qo‘llaniladi:
- 1.Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi.
  - 2.Muammoli vaziyat yaratiladi.

- 3.O‘qituvchi tomonidan amaliy ko‘rsatmalar beriladi.
  - 4.O‘quvchilarning guruh rahbarlari tomonidan guruhning bergan javoblari himoya qilinadi.
  - 5.Dars so‘ngida o‘qituvchi tomonidan yakuniy xulosa beriladi.
- “Kichik guruhlarda ishlash “usulining maqsad va vazifalari:
- 1.Dars jarayoning qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.
  - 2.O‘quvchilarni ijodiylikka,mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.
  - 3.Bu usul o‘qituvchi va o‘quvchini birgalikda faol ishlashga o‘rgatadi.

O‘qituvchi asardan ushbu parchani har bir guruhgaga beradi:

Ey zoyiri Ka’bayi saodat  
 Lutfingdin etarmen istifodat  
 Kim bizni dag‘i duoda yod et,  
 Bu ishq o‘ti shu’lasin ziyod et!

Guruh esa lug‘at bilan ishlab parcha mazmunini yuqoridagi sharhlar bilan umumlashtirgan holda yoritib beradi. Qaysi guruh to‘g‘ri va aniq topshiriqni bajarsa o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

“Layli va Majnun” dostonidan kelib chiqadigan xulosa shuki, bu dunyoda yashovchi har bir inson oshiqlik yo‘lini tutib, o‘zini o‘limga emas, balki vasl mayini ichishga tayyorlashi kerak, zero bu dunyoning birdan-bir mazmuni ham shu. Ruhi mutlaqni tasavvur qilishda inson aqli va ongi ojizlik qiladi, shu sababli Navoiy uni mazhar – Layli timsolida yaratadi.<sup>84</sup> Shu va boshqa voqeа va mushohadalarni - talabalar lug‘atlarni to‘g‘ri tahlil qila olish orqali amalga oshiradilar.

---

<sup>84</sup> Yusupova.D.Layli va Majnun dostoni haqida. www.google.uz

## Xulosa

Navoiy bugungi kundagi adabiyotshunoslikdagi yangi, sintezlash jarayonini XVI asrlardayoq yaratib bo‘lgan. Ham ijtimoiy, ham ma’naviy – ma’rifiy hayotda adabiyotning mavqeい benihoya balandligi shundaki, u kishining histuyg‘ularigagina emas, balki tafakkuri va shuuriga, fikrlash tarzi va o‘zaro insoniy munosabatlariga uning irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda ta’sir o‘tkazadi. Eng yaxshi badiiy asarlar butun insoniyatning, ayniqsa, yoshlearning sodiq do‘sti, zero ular qalbini yuksak va olajanob tuyg‘ular bilan to‘ldirishda, yana ham muhimi, ularni ezgu ishlarga ilhomlantrish, o‘quvchilarda Vatan, xalq oldidagi burch hissini yuksaltirishda yetakchi omildir. Buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiyning asarlari bu borada beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shoирning boy merosidan bahramand bo‘lish yoshlarimizning komil inson bo‘lib voyaga yetishida muhim rol o‘ynaydi. Navoiyning o‘zi ta’kidlaganidek, tarbiyaning maqsadi – yosh avlodni xalqparvar, bilimli, yaxshi fazilatli qilib yetishtirishdir. Alisher Navoiy VI asr ilgari bugungi kun o‘zbek xalqining buyuk kelajak sari intilayotgan yoshlariga qarata aytilgan bashorat tarzidagi fikrlari desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Alisher Navoiy ijodida so‘zlarning ichki va tashqi ma’nolariga beqiyos e’tiborni qaratgan. Natijada shoирning lug‘at boyligi ortib borgan, so‘zlarning shakliy va ma’naviy ko‘rinishlari xilma-xillik kasb etgan, ma’lum bir so‘zning juz’iy ma’nosи kengayib, kulliy mohiyati matnlararo turli

xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib borgan. Har bir inson, u qanday kasb egasi bo‘lishidan qat’i nazar, ma’naviy jihatdan barkamon bo‘lsa, o‘zi yashab turgan jamiyat uchun foydasi ko‘proq tegadi, berilgan umri mazmunli bo‘ladi. Biz ushbu ishimizda Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini o‘rgatish yo‘llari va lug‘at yordamida turli metodlarni qo‘llash orqali darsni tashkil qilish shakllarini ochib berishga harakat qildik.

Mir Alisher Navoiyni o‘zbek adabiy tilining asoschisi va g‘azal mulkining sultonii, qolaversa, jahon adabiyoti xazinasiga durdoni asarlarini taqdim etgan barkamol inson sifatida biz yoshlarga ibrat bo‘ladi. Chunki Navoiy siymosi ma’naviy barkamollik kasb etish orzusida bo‘lgan talabalar uchun tom ma’nodagi namuna katta ibrat maktab vazifasini o‘taydi. Alisher Navoiy asarlarining tili murakkabligini, yoshlarga tushuntirishda qiyinchiliklar tug‘dirishini hisobga olib, ularga izohli ommabop lug‘atlar, sharhlar bitish lozim. Talaba-yoshlar ongiga milliy g‘oya va uning ildizlarini singdirish maqsadida Navoiy asarlari g‘oyalari bo‘yicha maxsus kurslar tashkil qilinsa nur ustiga a’lo nur bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, uning “Xamsa” asariga kirgan barcha dostonlarini lug‘atlar bilan, ularni turli usullarda qo‘llash orqali tushuntirish, asarlarning mazmun-mohiyatini to‘laroq yoritib berishga xizmat qiladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

### **Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev.Sh.Erkin va farovon, demokratik O‘zbeiston davlatini bиргаликда барпо етамиз.-Т.:“O‘zbekiston”,2016.
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. –Т.: “Ma’naviyat”,2017.
- 3.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.

### **Asosiy adabiyotlar:**

4. Aliqulova.N.Adabiyot o‘qitishda badiiy tahlil masalalari. –Т.: “Til va adabiyot ta’limi” журнали,2018,3-сон.
5. Komilov.N.Naviy haqida. www.ziyonet.uz
6. Hayitmetov.A. “Xamsa”ning yaratilish jarayoni(“Xamsa” haqida ikki maqola)
7. Zunnunov.A va b.Adabiyot o‘qitish metodikasi.T.:”O‘qituvchi”,1992.

8. Safo Matjon va Sharafjon Sariyev. O‘zbek adabiyoti. “Yurist-media markazi”, T.2008
9. G‘ulomova.N.Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mo‘ljallangan darslik.T.: “Sharq”,2013.
10. To‘xliyev.B va b.Akademik litseyning 2-bosqich talabalari uchun mo‘ljallangan adabiyot darsligi.T.: “Cho‘lpon”,2010.
11. Sariboyeva.M.Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini o‘rganish.T.: “Til va adabiyot ta’limi” jurnali,2010-y. 4-son.
12. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti (ma’ruza matni).Navoiy,2012.
13. Ahrorova.Z.Alisher Navoiy ijodida ma'rifatli ayollar madhi.T.: “Til va adabiyot ta’limi” 2019-yil 2-son.
14. Yoshlar – yurt tayanchi, kelajagimiz vorislaridir. (tahririyat)Xalq ta’lini, 2017. 4-son
15. Xolmurodova. J. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma), T, 2008
16. Jalilov. B.O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (ma'ruzalar matni).Andijon 2012.
17. Rahimova.N. Lug‘atlar ustida ishlash orqali talabalarning so‘z boyligini oshirish(O‘zbek tili va adabiyotida fanidan metodik ko‘rsatma), T.:2015.
18. Muhibdinova.X.S.O‘zbek tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar.O‘quv-uslubiy majmua,Toshkent,2006.
19. Azizzoxjayeva.N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.:”Adabiyot jamg‘armasi”,2006.
20. Yusupova.D.Layli va Majnun dostoni haqida. [www.google.uz](http://www.google.uz)

### **Elektron adabiyotlar:**

- 21.[www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)
- 22.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

23.www.google.uz

24.www.ziyouz.com